



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2025-yil “26”-iyun

244-son

Toshkent shahri

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida beriladigan kvalifikatsiyalar ro‘yxatini
tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2025-yil 22-yanvar kuni oliy ta’lim va ilm-fan sohasida 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan taqdimotda berilgan 5-sonli topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2025-yil 22-yanvar kuni oliy ta’lim va ilm-fan sohasida 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan taqdimotda berilgan 5-sonli topshiriqlar ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ta’lim sohalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlari tomonidan ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan malaka talablariga asosan bitiruvchilarga beriladigan kvalifikatsiyalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta’lim sifatini ta’minlash departamenti** (A.Xoliqov), **Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi** (M.Esanov) oliy ta’lim tashkilotlarining mazkur buyruqning ilovasi bilan tasdiqlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida beriladigan kvalifikatsiyalar ro‘yxatiga qat’iy amal etishini ta’minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazirning birinchi o‘rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin